



O'RTACHA SHO'RLANGAN YERLARDA SHOLI MAYDONLARIDA TARQALGAN BEGONA O'TLAR TURLARI

Matyakubova Zubayda Rustambayevna 
Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Ilmiy maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani sholi yetishtiriladigan yerlarida tarqalgan begona o'tlar turlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sholi, begona o't, bir yillik, ko'p yillik.

Аннотация. В научной статье перечислены виды сорняков, распространенных в рисоводческих районах Амударийского района Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова: рис, сорняк, однолетнее, многолетнее.

Abstract. The scientific article lists the types of weeds common in the rice-growing areas of the Amudarya region of the Republic of Karakalpakstan.

Keywords: rice, weed, annual, perennial.

KIRISH

Dunyo dehqonchiligida bir qator Yevropa mamlakatlarida hamda Buyuk Britaniya, Fransiya, Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa ko'plab davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham begona o'tlarga qarshi kurashish, hozirgi paytda o'simliklarni himoya qilishning asosiy masalasi bo'lib, ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal etmasdan turib, dehqonchilikda tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirish tadbirlari samaradorligini foydasi bo'lmaydi.

Bunda, asosiy masala begona o'tlarni to'liq yo'qotish emas, balki agrofitosenozi strukturasi optimallashtirib, ularning zararli ta'sirini kamaytirish hisoblanadi [4]. O'zbekistonda sholi ekiladigan maydonlarida begona o'tlarning 300 ga yaqin turi borligi qayd qilingan. Shulardan 30 turga yaqini katta zarar keltiradi [2]. O'simliklarni himoya qilish va Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutlarining ma'lumotlariga qaraganda, sholini muntazam ravishda zararlaydigan va unga xo'jalik jihatdan katta zarar yetkazadigan zararkunandalarning 33 turi mavjud bo'lib, ular 2 sinfga, 8 turkumga va 15 oilaga mansub hamda begona o'tlarning bir necha turlari, ko'p yillik, bir yillik, bir pallali va ikki pallali begona o'tlardir [3].




AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Ilmiy tadqiqotlar 2025-2027 yillarda olib borish rejalashtirilgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida o'tkazilmoqda. Tajriba sholi maydonlarida tarqalgan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, dala tajribalarini qo'yishdan oldin Amudaryo tumani sholi ekiladigan maydonlarda tarqalgan begona o'tlarni aniqlash maqsadida kuzatuvlar olib borildi. Tajriba maydonida begona o'tlar aniq usulda hisobga olindi. Buning uchun har bir daladan 10 ta nuqtada, 0,5 m² li ramkada begona o'tlar sanalib, qo'shildi va 10 ga bo'linib, 1 m² dagi begona o'tlar soni aniqlandi. So'ngra gektarga hisoblab chiqildi. Begona o'tlarni aniqlash davomida oila va turlarga ajratilib, dalaning qaysi turdagi begona o'tlar bilan ifloslanganligiga baho berildi [1].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi geografik joylashuvi, Orol dengizining qurishi, natijada suv tanqisligi, iqlim sharoitining quruq, tuproqlarda sho'rlanish darajasining ortib borishi uning unumdorlik va meliorativ holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, mintaqada ekologik muvozanatga, shuningdek, o'simlik dunyosining ham shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Dala kuzatuvlarimiz ko'rsatishicha, Amudaryo tumani sholi ekiladigan maydonlarida bir yillik boshqli begona o'tlardan kurmak, qora kurmak, itqo'noq, Tajriba maydonida 1 m²da o'rtacha bir yilliklardan kurmak -4,67 dona, qora kurmak - 4,33; qo'ng'irbosh 5,10; qiyaq - 5,43; itqo'noq - 6,21 dona, ko'p yillik boshqilardan hilol - 6,32; qamish - 1,24; bug'doyiq - 2,35; yovvoyi sholi - 3,60 donani, jami 1 m²da 39,25 dona begona o'tlar borligi aniqlandi.

XULOSA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani sholi yetishtiriladigan yerlarida asosan bir pallali boshqli begona o'tlar bilan zararlanganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. –М.: Агропромиздат, 1985. -351 с.
2. Котт С.А. Сорные растения и борьба с ними. –Москва, 1991. –С. 160-169.
3. Никитин В.В. Сорные растения флоры СССР. Л.: Наука, 1983, 454 с.
4. Шоу У.К., Джексен Л.Л. Стратегия химической борьбы с сорняками для будущего//Стратегия борьбы с вредителями, болезнями растений и сорняками в будущем. М.: Колос, 1977, с. 208-228.